

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

BOBONAZAROVA GULNOZA TOLIBJONOVNA

**JAHON ADABIYOTI NAMUNALARI ASOSIDA TALABALARNING
BADIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI
(Jahon adabiyoti fani misolida)**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Pedagogika fanlari bo'yicha falcafa doktori (PhD)
diccertasiyaci avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации
доктора философии (PhD) по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of
philosophy (PhD) on pedagogical sciences**

Bobonazarova Gulnoza Tolibjonovna

Jahon adabiyoti namunalari asosida talabalarning badiiy kompetensiyalarini
rivojlantirish metodikasi 3

Бобоназарова Гулноза Талибжоновна

Развитие художественных компетенций учащихся на примерах мировой
литературы.....20

Bobonazarova Gulnoza Talibjonovna

Development of artistic competences of students based on examples of world
literature39

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

список опубликованных работ

List of published works.....43

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

BOBONAZAROVA GULNOZA TOLIBJONOVNA

**JAHON ADABIYOTI NAMUNALARI ASOSIDA TALABALARNING
BADIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI
(Jahon adabiyoti fani misolida)**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Ped7429 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston milliy pedagogika universiteti da bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi www.tdpu.uz hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portali www.ziynet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Abdullayeva Barno Sayfutdinovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Shodiyeva Matluba Jo'rayevna
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Kenjayeva Muxayyo Abdumurodovna
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Guliston davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi DSc.03/30.01.2024. Ped.26.01 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil «__» ____ soat ____dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100011, Toshkent shahri Chilonzor tumani Bunyodkor ko'chasi, 27-uy. Tel.:(99871) 276-79-11; faks: (99871) 276-80-86, e-mail: tdpu_kengash@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100011, Toshkent shahri Chilonzor tumani Bunyodkor ko'chasi, 27-uy. Tel.:(99871) 276-79-11; faks: (99871) 276-80-86

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «__» _____ da tarqatildi.

(2025 yil "____" _____ da _____ raqamli reestr bayonnomasi)

Z.N.Mamarajabova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi
ped. fan. dok., professor

R.G.Isyanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi
ped. fan. nom., dotsent

M.E.Mamarajabov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi seminar raisi
ped. fan. dok. professor,

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahon oliy ta'lim muassasalarida jahon adabiyoti namunalari asosida talabalarning badiiy kompetensiyalarini rivojlantirishning kreativ modulli texnologiyalari ta'lim jarayoniga tatbiq etilmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining "XXI asrning Oliy ta'limi" Butunjahon deklaratsiyasi, YUNESKOning "Oliy ta'limni isloh qilish va rivojlantirish" dasturiy hujjati, Yevropa oliy ta'lim muassasalari sifatini bir xilligini ta'minlash maqsadida qabul qilingan Bolonya deklaratsiyasi dunyo miqyosida ta'lim sifatini oshirishda muhim o'rin egallamoqda¹. Axborotlashgan jamiyatda jahon adabiyoti namunalari tahlilini yoshlarga innovatsion, interaktiv usullar yordamida o'rgatish, jahon adabiyoti namoyondalarining ijodini keng o'rganish, elektron lug'atlar asosida mustahkamlash, ta'lim sharoitida texnologik innovatsiyalarning birligini ta'minlash bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida jahon adabiyoti namunalari asosida talabalarning badiiy kompetensiyalarini rivojlantirish, badiiy asarlar tahlili va xususiyatlari, umuminsoniy g'oyalarini avlodlarga moslashtirish, jahon adabiyoti namunalari badiiy kompozitsion xususiyatlarini aniqlash, hissiy zavqlanish, badiiy va ijodiy, o'zini-o'zi anglashni hissiy idrok etish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shuningdek, internet va telekommunikatsiyaga tayanilgan yangi o'qitish uslublaridan foydalanib, jahon adabiyoti namoyondalarining ijodi, badiiy asarlar tahlili, obrazlar hamda adabiyot janrlarini kreativlik asosida o'qitishni takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda jahon adabiyoti namunalari asosida talabalarning badiiy kompetensiyalarini rivojlantirish orqali jahon adabiyoti namoyondalari ijodi, badiiy asarlar tahlili, jahon xalqlari madaniyati, asarlarining tarbiyaviy jihatlarini keng o'rganish, badiiy san'at asarlarida yoshlarni hayotimiz bilan hamnafasligini namoyon etishga tayyorlash, insonparvarlik, xalqparvarlik, vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishning meyoriy asoslari yaratilmoqda. "Adabiyot kabi boshqa muhim va talab yuqori bo'lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'rganish, ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish² ustuvor vazifa etib belgilandi. Natijada, jahon adabiyoti namunalari asosida talabalarning badiiy kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyati kengaytirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida", 2018-yil 25-yanvardagi PF-5313-son "Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish

¹. BMT. "XXI asrning Oliy ta'limi" Butunjahon deklaratsiyasi (1998 y.), YUNESKOning "Oliy ta'limni isloh qilish va rivojlantirish" dasturiy hujjati (1995 y.)

². "O'zbekiston respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni. 2019 yil 8 oktyabr.

konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 11-maydagi PF-134-son "2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida", 2023-yil 26-maydagi PF-79-son "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini rivojlantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahon adabiyoti namoyondalari ijodi va badiiy asarlar talqini N.Abduvalitov, A.Alimuhammedov, Q.Azizov, F.Boynazarov, M.Do'stmuhammedov, A.Zunnunov, H.Ismoilov, V.Kadirov, M.Mirqosimova, S.Maxmudova, Sh.Normatova, U.Saidov, B.Raxmonov, O.Qayumov, A.Qosimova, D.Quronov, U.Hamdamovlar; adabiyot o'qitish metodikasi B.To'xliyev, S.Matchonov, R.Niyozmetovalar; Sharq va G'arb adabiy aloqalari, badiiy asarlar tahlili, ularning jahon adabiyotidagi o'rni F.Sulaymonova, N. Komilovlarning tadqiqot ishlarida o'z aksini topgan.

MDH mamlakatlaridan V.V.Bichkov, N.M.Blogoveshenskiy, L.N.Lesoxina, Yu.M.Melitinskiy, I.Stebleva, V.Kan-Kalik, N.M.Sokolov, L.Petriyevlar adabiyot janrlari va badiiy asarlarni o'qitish metodikasi yuzasidan tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Xorijiyda adabiyot durdonalarini o'rganish va badiiy matn tahlilini rivojlantirish metodikasi D.Damrosch, L.Elvell Setton, J.Garsin de Tassi, N.A.Kun, M.Ko'pruluzoda, D.Selvi, X.Lohmanlar tomonidan tadqiq etilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot rejasining "Pedagogik yo'nalishlar va mutaxassisliklar bo'yicha ilg'or pedagogika texnologiyalarini joriy etish, pedagog kadrlarni sifatli tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, elektron-ta'lim resurslarini yaratish va takomillashtirish, o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogika, multimedia va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish" nomli ustuvor yo'nalish doirasida bajarilgan (2020-2024 yy.).

Tadqiqotning maqsadi jahon adabiyoti namunalari asosida talabalarning badiiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

talabalarning badiiy kompetensiyalarni rivojlantirishning didaktik imkoniyatlarini aniqlash;

jahon adabiyoti namunalari asosida talabalarning badiiy kompetensiyalarni rivojlantirish modelini takomillashtirish;

jahon adabiyoti namunalari asosida talabalarning badiiy kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish.

jahon adabiyoti namunalari asosida talabalarning badiiy kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida jahon adabiyoti namunalari asosida talabalarning badiiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish jarayoni bo'lib, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Nukus filialida, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Farg'ona mintaqaviy filialining 402 nafar talabalari ishtirok etgan.

Tadqiqotning predmetini jahon adabiyoti namunalari asosida talabalarning badiiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning shakl, metod vavositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishida adekvat holatda o'rganishni ta'minlashga qaratilgan metodlar majmui: nazariy tahliliy sintetik, qiyosiy-taqqoslash, analogiya, diagnostik so'rovlar, test o'tkazish, kuzatish, loyihalashtirilgan metodikalar, prognostik ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish, pedagogik eksperiment va matematik metodlar ma'lumotlarni statistik qayta ishlash, natijalarni grafik tasvirlash va boshqalardan foydalanildi.

Tadqiqot ishining ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talabalarning badiiy kompetensiyalarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari estetik butunlik, og'zaki va yozma adabiyot borasidagi qarashlar, muammolar va ularni bartaraf etish strategiyalarini o'rganish hamda umuminsoniy g'oyalarini ijtimoiy-madaniy fenomen sifatida avlodlar shajarasiga nazariy jihatdan uyg'unlashtirish asosida aniqlashtirilgan;

jahon adabiyoti namunalari asosida talabalarning badiiy kompetensiyalarni rivojlantirish modeli kognitivlikka asoslangan maqsadlarga erishish, kommunikativlikka asoslangan mustaqil o'qish amaliyotiga yo'naltirilgan va hamkorlikda o'qitish yondashuvlariga ustuvorlik berish va liro-epik ijod namunalaridan foydalanish tamoyillarini integratsiyalash hamda kitobxonning madaniyati, mantiqiy fikrlashni o'stirish, idrok etish komponentlariga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan;

jahon adabiyoti namunalari asosida talabalarning badiiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi nazariy va amaliy bilimlar berish usuli, "For example" texnologiyasi, rolli va ta'limiy o'yinlar asosida badiiy tajribani boyitishga qaratilgan kichik guruhlarda ishlash ko'nikmalarini oshirish hamda o'zaro hamkorlik faoliyatiga ko'ra badiiy kompetensiyalarni rivojlantirish asosida takomillashtirilgan;

jahon adabiyoti namunalari asosida talabalarning badiiy kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligi aqliy faoliyat vektorlarini bosqichma-bosqich aniqlash, dalillash va kognitiv-progmatic bosqich, g'oyaviy tahlil, subektiv xulosa, baholash mezonlarining integrativ yaxlitligini ta'minlash hamda ma'naviy merosga aksiologik ong va munosabatni qaror toptirish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

talabalarning badiiy kompetensiyalarini rivojlantirish modeli takomillashtirildi;

talabalar uchun "Jahon adabiyoti" nomli o'quv qo'llanma (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 27-dekabr 485-son buyrug'i asosida) ishlab chiqildi;

talabalarning badiiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasining baholash mezonlari aniqlandi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi va asosiligi tadqiqotning ilmiy mantig'i bilan, olimlarning ilmiy tadqiqotlari tahliliga tayanish bilan, tadqiqot mavzusi va maqsadiga mos keluvchi usullarni qo'llash hamda olingan natijalarning bir necha marta sinovdan o'tkazilishi va takrorlash mumkinligi bilan ta'minlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, jahon adabiyoti namunasi asosida talabalarning badiiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi mazmunini takomillashtirish, talabalarning badiiy kompetensiyalarini egallashlari lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar bo'yicha badiiy asar tahlilini rivojlantirish tartibi amaliy-metodik jihatdan talqin qilinganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati jahon adabiyoti namunasi asosida talabalarning badiiy kompetensiyalarini rivojlantirishda oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun o'quv qo'llanmalarni yaratishda, fan dasturlarini ishlab chiqish, o'qitish shakllari va texnologiyalardan foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Jahon adabiyoti namunasi asosida talabalarning badiiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bo'yicha natijalar asosida:

talabalarning badiiy kompetensiyalarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari estetik butunlik, og'zaki va yozma adabiyot borasidagi qarashlar, muammolar va ularni bartaraf etish strategiyalarini o'rganish hamda umuminsoniy g'oyalarini ijtimoiy-madaniy fenomen sifatida avlodlar shajarasiga nazariy jihatdan uyg'unlashtirish asosida aniqlashtirishga oid takliflar "Jahon adabiyoti" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Milliy pedagogika universitetining 2025-yil 21-maydagi 11-05-3266/04 raqamli ma'lumotnoma). Natijada, talabalarning badiiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasining pedagogik, psixologik va metodik imkoniyatlari yaratilgan;

jahon adabiyoti namunalari asosida talabalarning badiiy kompetensiyalarni rivojlantirish modeli kognitivlikka asoslangan maqsadlarga erishish, kommunikativlikka asoslangan mustaqil o'qish amaliyotiga yo'naltirilgan va hamkorlikda o'qitish yondashuvlariga ustuvorlik berish va liro-epik ijod namunalaridan foydalanish tamoyillarini integratsiyalash hamda kitobxonning madaniyati, mantiqiy fikrlashni o'stirish, idrok etish komponentlariga ustuvorlik berish

asosida takomillashtirishga oid takliflar “Jahon adabiyoti” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Milliy pedagogika universitetining 2025-yil 21-maydagi 11-05-3266/04 raqamli ma‘lumotnoma). Natijada, talabalarning badiiy kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari takomillashtirilgan;

jahon adabiyoti namunalari asosida talabalarning badiiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi nazariy va amaliy bilimlar berish usuli, “For example” texnologiyasi, rolli va ta’limiy o‘yinlar asosida badiiy tajribani boyitishga qaratilgan kichik guruhlarda ishlash ko‘nikmalarini oshirish hamda o‘zaro hamkorlik faoliyatiga ko‘ra badiiy kompetensiyalarni rivojlantirish asosida takomillashtirishga oid takliflar “Jahon adabiyoti” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Milliy pedagogika universitetining 2025-yil 21-maydagi 11-05-3266/04 raqamli ma‘lumotnoma). Natijada, talabalarning jahon adabiyoti namunasi asosida talabalarning badiiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga erishilgan;

Jahon adabiyoti namunalari asosida talabalarning badiiy kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligi aqliy faoliyat vektorlarini bosqichma-bosqich aniqlash, dalillash va kognitiv-progmatic bosqich, g‘oyaviy tahlil, subektiv xulosa, baholash mezonlarining integrativ yaxlitligini ta’minlash hamda ma’naviy merosga aksiologik ong va munosabatni qaror toptirish asosida takomillashtirishga oid takliflar “Jahon adabiyoti” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Milliy pedagogika universitetining 2025-yil 21-maydagi 11-05-3266/04 raqamli ma‘lumotnoma). Natijada, talabalarning jahon adabiyoti namunalari o‘rganganlik darajalarini baholash mezonlarini aniqlashtirish imkoni kengaytirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro, 2 respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy-uslubiy ish, xususan, Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarni chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, jumladan, 2 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda nashr ettirilgan.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat bo‘lib, asosiy matn 140 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi, maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, tadqiqotning usullari tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari hamda ularning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobsiyasi, e‘lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “Jahon adabiyoti namunalari asosida talabalarning badiiy

kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslari” deb nomlangan birinchi bobida, talabalarning badiiy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik muammolari, talabalarda badiiy kompetensiyalarni rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari, jahon adabiyoti namunalari talabalarning badiiy kompetensiyalarini rivojlantirishning asosi sifatida yoritib berilgan.

Jahon adabiyoti fani adabiy-madaniy muhit haqidagi qarashlar va ularga munosabat, tarixiy–adabiy jarayonning taraqqiyot qonuniyatlari va ijtimoiy muhit bilan bog‘liqligi kabi masalalarni qamrab oladi. Adabiy-estetik qadriyatlarning milliy va umumbashariy jihatlarini, badiiy adabiyotning hamda adabiyot nazariyasining millat va jamiyat ravnaqidagi o‘rnini bilish, badiiy asarni chuqur tushunish, tahlil qilish, tadqiq etish, jamoatchilikka jahon adabiyotidagi mazmun va shakl, mavzu va g‘oyaning mohiyati bilan tanishtirishga ko‘maklashish, jamiyatning ma‘naviy manzarasini adabiy-nazariy tafakkur orqali tushunib yetish e‘tiborga olinadi.

Jahon adabiyoti fanini o‘qitishning vazifalari: talabalarda badiiy adabiyotga mehr uyg‘otish, asarlarni tushunadigan va tahlil qiladigan, badiiy matn to‘g‘risidagi fikrlarni og‘zaki yoki yozma tarzda to‘g‘ri hamda erkin ifodalay oladigan qilib tarbiyalashdan iborat. Bu vazifalarning bajarilishiga erishish uchun talabalarda quyidagi sifatlarni rivojlantirish talab qilinadi: jahon adabiyotining yetuk namunalarini o‘qib o‘rganish; badiiy adabiyotning paydo bo‘lishi, ijtimoiy-madaniy fenomen sifatidagi tabiati haqida tushunchaga ega bo‘lish; adabiyotning rivojlanish qonuniyatlari, uning ijtimoiy hayot, ijtimoiy-siyosiy tuzum bilan bog‘liq jihatlar, adabiy davrlar, ularning almashinish qonuniyatlarini bilish; adabiy tur va janrlar, milliy adabiyotning tasvir vositalari haqidagi bilimlarini o‘zlashtirish; badiiy matnni estetik butunlik, joziba manbai sifatida idrok etish ko‘nikmasini shakllantirish, badiiy zavq sabablarini topish malakasini egallash; badiiy asarni o‘qish mobaynida unga hissiy yondoshish, sezimlar, tuyg‘ular nozikligini hamda boyligiga erishish; badiiy asar muallifining tuyg‘ularini, uning qahramonlari sezimlarini his etish; har qanday janr va yo‘nalishdagi badiiy matnni qabul qila biladigan darajadagi badiiy didni shakllantirish; adabiy til boyliklaridan ravon va savodli foydalanish ko‘nikmalarini egallashdan iborat.

Talabalarning badiiy kompetensiyalarini rivojlantirishda, avvalambor, uning quyidagi xususiyat va bosqichlariga e‘tibor berish muhim.

badiiy asarni o‘qish, tushunish va tushuntirish kompetensiyasi: Tavsiya etilgan badiiy ijod namunalari (nasriy, she‘riy, dramatik asar)ni ifodali o‘qish, ularning mazmun-mohiyatini tushunish, anglash va idrok etish. She‘riy matn yoki uning parchasini ifodali yod aytish, badiiy asar syujetini qayta hikoyalash, o‘zgalarga tushuntirib berish, ularda tasvirlangan voqea-hodisalar, obrazlar tizimiga munosabat bildirish;

badiiy asarni tahlil (analiz, sintez) qilish kompetensiyasi: tavsiya etilgan xalq og‘zaki ijodi, mumtoz, zamonaviy va jahon adabiyoti namunalari (nasriy, she‘riy, dramatik asar)da tasvirlangan voqea-hodisalar, ularning shakliy tuzilishi, mavzu doirasi, badiiy xususiyatlari, ularga xos ta’sirchanlik, teranlik, oddiylik, obrazlar tizimini tahlil qilish;

Jahon adabiyoti namunalari asosida talabalarning badiiy kompetensiyalarini rivojlantirishda e‘tiborli bo‘lgan ayrim xususiyatlar borki, ularni takomillashtirish muhim ahamiyatga ega: talabalarning jahon adabiyoti namoyondalari ijodi bo‘yicha

mustaqil ravishda olgan bilimlari; ularning adabiy-nazariy tayyorgarliklari; badiiy asardagi asosiy tasvir vositalarini aniqlay olish hamda ularning shu matnda bajarayotgan vazifalarini tahlil qila olishga oid malaka va ko'nikmalarni tarkib toptirishdan iborat.

Bizningcha, jahon adabiyoti namunalarini o'qitishdagi murakkabliklarning ichki va tashqi omillari mavjud. Ichki omillarga jahon adabiyotning shakli, mazmuni va tabiatida mavjud bo'lgan xususiyatlar kiradi. Tashqi omillar esa qarash, munosabat va yondashuvlarning turlichaligidan iboratdir.

Jahon adabiyoti namunalarini o'rgatishdagi murakkablik tasavvuf ta'limotining jahon durdonalari asarlar poetikasiga ta'siri masalalari bo'yicha talabalar bilimining yetarli emasligidadir. Ayniqsa, Antik davr yunon adabiyoti, Rim adabiyoti, O'rta asrlar adabiyoti va G'arbiy Yevropa Uyg'onish adabiyoti, Yevropa ma'rifatchilik adabiyoti, Romantizm adabiyoti, Realizm va tanqidiy realizm adabiyoti, Amerika adabiyoti, XX asr Lotin Amerikasi adabiyotini bilish orqali talabalarning dunyoqarashini kengaytirish, tafakkur ko'lamini yuksaltirish, badiiy adabiyot tarixi va adabiy-nazariy tafakkur tadrijining shaxs va jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyatini ko'rsatib berish, talabalarning adabiy-estetik tafakkurini yuksaltirish, ilmiy mushohadaning vujudga kelishi hamda nazariy tahlili va talqin ko'nikmalarini hosil qilish, faol ijodkorlik ruhi va mas'uliyatini shakllantirish bilan bog'liq vazifalarni bajaradi.

“Yunoniston shunday bir jahon ustaxonasiki,—degan edi Belinskiy, har qanday poeziya nafosatni idrok etmoq uchun shu ustaxonada tahsil ko'rmog'i darkor”. Darhaqiqat, yangi zamon Yevropa tillarining barchasida tarjima etilgan «Iliada» va «Odissey» dostonlari olimlar, adiblar va san'at ahllarining diqqatini hamon o'zlariga jalb etib, ularni qayta-qayta tadqiqotlar o'tkazishga, go'zallik namunalaridan ibrat olishga da'vat qilib keladi. Jahon adabiyoti namunalari asosida talabalarda badiiy kompetensiyani rivojlantirishda quyidagi jihatlarga e'tiborni qaratish muhim: talabalarning badiiy kompetensiyalarini rivojlantirish xususiyatlari; talabalar nutqini rivojlantirishda asarlar tahlili va lug'atini kuchaytirish; talabalar bilimini mustahkamlashda adabiy-estetik omilni rivojlantirish; jahon adabiyoti namunalarini illyustratsiyalar asosida taqdim etish.

Talabalarda badiiy kompetensiyalarni rivojlantirish – bu ularning adabiy matnni emotsional, estetik va analitik qabul qilish qobiliyatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan murakkab va ko'p bosqichli jarayondir. Bu jarayon nafaqat bilim berish, balki talabaning tafakkur doirasini kengaytirish, mustaqil fikrlashni rag'batlantirish, estetik didni shakllantirish va madaniy qadriyatlarni anglash kabi ko'nikmalarni rivojlantirishni ham o'z ichiga oladi

Jahon adabiyoti namunalari asosida talabalarda badiiy kompetensiyani rivojlantirishda jahon adabiyoti durdonalarini ko'rgazmalilik asosida yetkazish maqsadga muvofiq bo'ladi. Yan Amos Komenskiyning ta'kidlashicha, “Mumkin bo'lgan hamma narsa tuyg'ularning his etilishi uchun yetkazilishi kerak” deya bejiz ta'riflamagan.

Tadqiqot davomida jahon adabiyoti namunalari asosida talabalarda badiiy kompetensiyalarini rivojlantirishda talabalarning mustaqil o'qib, jahon adabiyoti durdonalarini o'rganishi va asarlarning tarbiyaviy jihatlarini tahlil qila olishi mumkinligi haqida o'z tushunchalarini qanday rivojlantirishini o'rganishga qaratilgan.

Shu bilan bir qatorda jahon adabiyoti namunalari asosida talabalarda badiiy kompetensiyalarini rivojlantirishda nimalardan foydalanish mumkinligi haqida soʻz boradi. Natijalar shuni koʻrsatadiki, jahon adabiyoti durdonalarini oʻrganish, tadqiq qilish va tahlil qilishga undaydigan asos bilan chuqur oʻrganish tajribasini targʻib qilish imkoniyatiga ega ekanligini koʻrsatadi.

Jahon adabiyoti namunalari boʻyicha mashgʻulotlarni olib borishda talabalar jahon adabiyoti matnlarni murakkablashtiruvchi omillar toʻgʻrisida toʻliq tasavvurga ega boʻlish bilan bir qatorda ularni bartaraf etish yoʻllari, shakl, vositalarini oʻzlashtirib oladi.

Dissertatsiyaning **“Jahon adabiyoti namunalari asosida talabalarning badiiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida, jahon adabiyoti namunalari asosida talabalarning badiiy kompetensiyalarini rivojlantirishning metodik tizimi, talabalarning badiiy kompetensiyalarini rivojlantirish modeli, jahon adabiyoti namunalari asosida talabalarning badiiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi haqida yoritilgan.

Jahon adabiyoti namunalari va ularning tarbiyaviy ahamiyati, badiiy asarlar tahlili, asar qahramonlarining oʻziga xos xususiyatlarini takomillashtirishning turli jihatlari qator tadqiqotchilar tomonidan oʻrganilgan. S.Mahmudova tomonidan jahon adabiyoti durdonalarining har bir davr asosida oʻrganilishi, uning eʼtiborga molik jihatlari va badiiy asarlarning tahlilini rivojlantirishga yoʻnaltirilgan oʻquv qoʻllanmalari bugungi kunda talabalar uchun jahaon adabiyoti durdonalaridagi sanʼat asarlarni keng va mazmunli tarzda oʻrganishi uchun nazariy maʼlumotlar yoritilgan.

Tadqiqot ishi davomida maʼlum boʻldiki, talabalarning badiiy kompetensiyalarini jahon adabiyoti namunalari asosida rivojlantirishning mazmuni bevosita jarayonni tashkil etish shakllari bilan bogʻliq. Bu talabalarda jahon adabiyoti namunalarni takomillashtirish zaruriyatini anglash va ularda badiiy kompetensiyalarini rivojlantirish asosida ushbu maqsadga erishish zaruratini vujudga keltirmoqda. Talabalarda badiiy kompetensiyalarini rivojlantirishning eng muhim boqichi qadriyatga yoʻnaltirilgan bosqich hisoblanadi. Qadriyatga yoʻnaltirilgan bosqich talabalarda maʼnaviy merosga aksiologik ong va munosabatni qaror toptirishni talab etadi. Jahon adabiyotini oʻrganish jarayonida talabalarda jahon xalqlari madaniyati, ularning badiiy qadriyatlari, xususan, milliy va jahon sanʼatida mislsiz qimmatga ega boʻlgan yuksak badiiy rang tasvir asarlariga qiziqishni rivojlantirish zarurati ilmiy asoslab berilgan.

Talabalarda jahon badiiy qadriyatlariga faol va barqaror qiziqishni rivojlantirish jarayoni uchun yuksak emotsional moyillik, qiziqish va faol istakning mavjudligi; maqsadni tushunish va anglab yetish; talabalarning ushbu jarayon mohiyati, mezonlari, boʻlajak kasbiy-shaxsiy faoliyatidagi roli va ahamiyatini bilishi; talabalarda ushbu qiziqishning kelajakdagi kommunikativ faoliyati uchun zarurligi toʻgʻrisidagi tasavvur-tushunchalar kabi xususiyatlar xos ekani aniqlandi.

Tadqiqot ishimizda talabalarda badiiy kompetensiyalarini rivojlantirishda jahon adabiyoti namunalarning nodir asarlari, ularning estetik badiiyligi va mazmundorligini tahlil qilishning asosiy koʻrsatkichlari sifatida quyidagilarni alohida eʼtirof etish mumkin: badiiy asarlarda yoritilgan borliq va uning estetik oʻziga xosligi; asarlarda hayotni aks ettirishning haqqoniyligi; durdona asarlarda tasvirlangan badiiy haqiqat; asarlarga ishlangan rangtasvirning estetik mazmuni;

hayotiy material va badiiy haqiqat; badiiy tasvir va unga rassomning g'oyaviy-emotsional munosabati.

Jahon adabiyoti namunalari asarlarini badiiy-estetik tahlil qilishda mavzusi, syujeti, janri, mazmuni, g'oyasi, rakurs, kompozitsiyasi, tasviriy vositalari, tuzilishi, ko'rinishi, obyektlar, predmetlar joylashuvi nazarda tutiladi.


Bugungi kunning oliy pedagogik ta'lim jarayonida o'rganish zaruratidan kelib chiqqan holda tadqiqot ishimizda jahon adabiyot namunalari asosida talabalarning badiiy kompetensiyalarini rivojlantirish modeli ishlab chiqildi. Mazkur modelni ishlab chiqishda ijtimoiy ehtiyoj, zarurat asos qilib olindi. Tadqiq qilingan jarayonning yo'llari, usullari va vositalarini ishlab chiqildi. Ushbu modelning konseptual mohiyati talabalarni jahon adabiyoti namunalari asosida badiiy kompetensiyasini rivojlantirishdan iborat. Yosh avlodni har tomonlama bilimli, ijodkor, salohiyatli shaxs sifatida tarbiyalash va jahon adabiyoti tarixida bitilgan nasriy va nazmiy asarlarni o'qishga qiziqish uyg'otish, badiiy asarlar mazmunidan kelib chiqib insoniy va kasbiy fazilatlarini yanada kamol toptirishdan tarkib topgan. Modelda jahon adabiyoti namunalari asosida talabalarning badiiy kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha nazarda tutilgan vositalar yordamida darslarni o'zlashtirish natijasi sifatida quyidagilar kuzatiladi: talabalar tomonidan o'quv predmetlari bo'yicha bilimlarning puxta egallanishini ta'minlanish; ta'lim-tarbiya jarayonida insonparvarlik g'oyalarining ustuvorligiga erishishni kafolatlashi; mashg'ulotlarga tayyorgarlik samaradorligini oshirish; o'qituvchi va talabalarni o'zaro hamkorlikka tayyorlash; talabalarning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishlari va amalda qo'llab ko'rish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish.

Modelda jahon adabiyoti namunalari asosida talabalarning badiiy kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida ta'limga kommunikativ yondashuvni joriy etish strukturasi izohlab berilgan. Pedagogik faoliyatning samaradorligini ta'minlovchi innovatsion va kognitiv yondashuv asosida talabalarning badiiy kompetensiyasini rivojlantirishning maqsad va vazifalari, tamoyillari va funksiyalarini kognitivlikka asoslangan komponent deb nomlandi.

Modelning natijaviy-baholash komponenti jahon adabiyoti namunalari asosida talabalarning badiiy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik tayyorgarligini takomillashtirish jarayonining majmuaviy hamda har bir element bo'yicha nazoratni amalga oshirishga va natijalarni ko'rsatishga ko'maklashadi.

Jahon adabiyoti namunalari asosida badiiy kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini o'rganish davomida ma'lum bo'ldiki, badiiy kompetensiya o'quv materiallaridan foydalanish bo'yicha badiiy asar mutolaasiga tayyorgarlik ko'rish amaliyoti bilan bevosita bog'liq.

Talaba ba'zi ehtiyoj doirasida badiiy asarni chuqur o'rganishga kirishadi. Badiiy asar vositasida turli ma'lumotlarga ega bo'lishadi va shu orqali so'z boyligi oshadi, og'zaki nutqdagi bilim va ko'nikmalar hosil bo'ladi, badiiy kompetensiyalar yozma nutqda va ijodiy fikrlashda samara beradi. Shular asnosida aqliy qobiliyatlar, intellektual salohiyat, o'z nuqtayi nazari, vatanparvarlik hissi hamda kasbiy komponentlar rivoj topadi. Tadqiqot davomida jahon adabiyoti namunalari asosida badiiy kompetensiyalarini rivojlantirishning o'ziga xos jihatlarining nazariy tomonlari hamda mashg'ulot davomida metod va usullardan foydalanishning ahamiyatli jihatlari ko'rib chiqildi.



2-rasm. Jahon adabiyoti namunalari asosida talabalarning badiiy kompetensiyasini rivojlantirish modeli.

Talabalarda jahon adabiyoti namunalari asosida badiiy kompetensiyalarni rivojlantirishda metodlarning bir necha turidan foydalanish maqsadga muvofiq. Zamonaviy adabiy ta'limda innovatsion metodlar orqali talabalar faqat adabiy faktlarni emas, balki ularning ma'naviy-estetik mohiyatini chuqur anglashlari talab qilinadi. Shu nuqtai nazardan, tadqiqot ishida dissertant tomonidan ishlab chiqilgan "Badiiy KAMERA" ("Artistic CAMERA" Method) nomli mualliflik metodi ilgari surilgan. Ushbu metod – badiiy tafakkur, his-tuyg'u, tanqidiy tahlil va ijodiy ifodaning uyg'un modelidir, u olti bosqich: 1. K – Kuzatish, 2. A – Anglash, 3. M – Muloqot, 4. E – Emotsiya, 5. R – Refleksiya, 6. A – Aks ettirish (ijodiy ifoda) asosida tuzilgan bo'lib, har bir harf adabiy kompetensiyaning muhim komponentini ifodalaydi. Shuningdek, "Literary Roleplay (Adabiy rolda chiqish metodi)", "Digital Storytelling (Raqamli hikoyachilik)", "Visual Thinking Strategies (VTS – Tasviriy tafakkur strategiyasi)" kabi metodlar va ularning qo'llanilish tartibi izohlangan.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarni ta'lim muassasalarga tayyorlash jarayoni bilan bog'liq masalalar tahlil qilinganda, ularning kompetensiyalarini rivojlantirish, aynan – nutq madaniyati va badiiy jihatlariga e'tiborni qaratish, jahon adabiyoti durdonalarini takomillashtirish va bugungi kunda uni amalga oshirish zaruriyati borligi aniqlandi.

Dissertatsiyaning "**Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va uning natijalari**" deb nomlangan uchinchi bobida pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish, o'tkazish metodikasi hamda pedagogik tajriba-sinov natijalarining miqdor va sifat tahlili yoritilgan.

Pedagogik tajriba-sinov ishlari 2022–2024 yillarda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Nukus filialida, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Farg'ona mintaqaviy filialining 402 nafar talabalarida olib borildi. Tadqiqot yuzasidan tajriba-sinov ishlari 3 bosqichda ishlab chiqilgan metodik tizim, turli metod, shakl va vositalar asosida tashkil qilindi va o'tkazildi.

